Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

# AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

## Агробизнес, наука и технологии

## *Agribusiness, science and technology*



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

**BOSH MUHARRIR**
**Oblomuradov Narzullo Naimovich** – i.f.d. (DSc), professor.
**Bosh muharrir o'rinbosarlari:**
**Islamov Soxib Yaxshibekovich –** q.x.f.d. (DSc), professor.
**Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich** – q.x.f.d. (DSc), professor.
**Farmonov To'lqin Xayitmurodovich –** i.f.d. (DSc), professor.
**Muharrir:**
**Beglayev Uchqun Xurramovich –** i.f.f.d. (PhD), dotsent.
**Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:**
**Kusainov Xalel Xaymullayevich** – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
**Vilija Aleknevičienė** – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
**Gilbert Ludwig** – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
**Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich –** i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
**Daiva Makutenene –** professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
**Xaitboyeva Nargiza Alikulovna -** i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
**Tahrir hay'ati:**
**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**
**Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Saidov Muxammad-Ali Xakimovich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Rustamova Iroda Baxramjanovna** – i.f.d. (DSc), professor;
**Ochilov Ilhom Sayitqulovich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Askarov Nazimjon Niyozovich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Abdullayev Altinbek Yangibayevich** – i.f.d. (DSc), professor;
**Boltayev Abror Sayitmuradovich –** i.f.d. (DSc), dotsent;
**Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich** – i.f.n. professor;
**Mamadiyarov Dilshad Uralovich** – i.f.n. dotsent;
**Achilov Mashrab Ulug'bekovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Galimova Feryuza Rafikovna** – i.f.n. dotsent;
**Odilova Dilnozaxon Barnayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Yangiboyev Dilshod G'ulomovich** – i.f.f.d. (PhD);
**Saidova Dildora Nurmatovna** – i.f.n. dotsent;
**Dexkanova Nilufar Sagdullayevna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Boltayev Nurali Shiramatovich** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Ibragimova Madina Ismoilovna** – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li** – i.f.f.d. (PhD).

**06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:**
**Shokirov Alisher Djuraboyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;
**Mardanov Husniddin Xolbozorovich** – q.x.f.d. (DSc);
**Abdiyev Fozil Rashidovich** – q.x.f.d. (DSc);
**Sattorov Maqsud Axtamovich** – q.x.f.d. (DSc);
**Yuldashov Nurbek Ergashovich** – v.f.d. (DSc);
**Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich** – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
**Namazov Ixtiyor Choriyevich** – q.x.f.d. (DSc), professor;
**Xudayqulov Jonibek Bozarovich** – q.x.f.d. (DSc), professor;
**Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li** – q.x.f.d. (DSc), professor;
**Abdullayev Anvar Kodirullayevich** – b.f.n., katta ilmiy xodim;
**Atabayev Ma'ruf Maxmudovich** – q.x.f.n. professor;
**Safarov Asqar Asadullayevich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Mustafakulov Davron Mamatqulovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Kasimov Botir Sadriddinovich** – q.x.f.f.d. (PhD);
**Akramov Umidilla Ikramdjanovich** – q.x.f.n. dotsent;
**Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li** – q.x.f.f.d. (PhD);
**Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li** – q.x.f.f.d. (PhD);
**Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
**Idrisov Xusanjon Abdujabborovich** – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

**MUASSIS**
Toshkent davlat agrar universiteti

**ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR**
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

**JURNALNING ILMIYLIGI:**

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

**Elektron nashr,** 447-sahifa.
2026-yil, oktabr.

# MUNDARIJA

## IQTISODIYOT FANLARI

**KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI**
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
**TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA**
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
**MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH**
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
**KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH**
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
**SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH**
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
**KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH**
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
**SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI**
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
**МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА**
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
**BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA**
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
**RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA**
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
**QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI**
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
**SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI**
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
**XAKIMOV RASHID**
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119

**TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI**
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
**SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI**
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
**ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI**
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148
**RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH**
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
**BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA**
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
**YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH**
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
**YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH**
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
**MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI**
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
**АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ**
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
**XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI**
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
**UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI**
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
**АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ**
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
**UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI**
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247

**MIRAXMEDOVA KAMOLA**
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
**RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI**
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
**IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH**
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
**BAXADIR ADILCHAEV**
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
**XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA**
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
**BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH**
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
**RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI**
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307
**KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH**
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar).....322
**IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH**
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....331
**ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА**
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики.....338
**YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH**
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish.....347
**SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH**
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari.....358
**KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH**
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida).....365
**QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH**
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari.....373
**ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH**
Long-term asset valuation and accounting in uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards.....381

**SHAVQIDINOVA DILNAVOZ**
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar.....389
**KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH**
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari.....395
**IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH**
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash yo'llari.....401
**SHAVQIDINOVA DILNAVOZ**
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo'yicha statistik tahlili.....407
**MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA**
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo'nalishlari (Xorazm viloyati misolida).....413
**SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH**
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
**ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA**
Klasterlash va infratuzilma o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....430
**SA'DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI**
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili.....439
**ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA**
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari.....447

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

# KLASTERLASHNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARI

**ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH**
Qarshi davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi
**NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA**
Qarshi davlat universiteti “Biznes va boshqaruv”
kafedrasi professori, i.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari, klaster boshqaruvini takomillashtirish, davlat siyosatining iqtisodiy jarayonlarni muvofiqlashtirishdagi o‘rni, hududiy rejalashtirish samaradorligi hamda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish masalalari ilmiy jihatdan yoritiladi. Klasterlashning hududiy iqtisodiy rivojlanish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirish, innovatsion faollikni oshirish va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida klasterlar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, qishloq xo‘jaligida bozor mexanizmlarini rivojlantirishga doir Prezident farmonlari hamda turistik klasterlarni tashkil etish tartibini belgilovchi hukumat qarorlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida klasterlarni boshqarishda institutsional hamkorlikni kuchaytirish, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini hisobga olgan holda rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish hamda yagona raqamli monitoring tizimlarini joriy etishga qaratilgan takliflar shakllantiriladi.
Kalit so‘zlar: klasterlash, tashkiliy mexanizmlar, klaster boshqaruvi, davlat siyosati, hududiy rejalashtirish, raqamli boshqaruv, innovatsion rivojlanish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, davlat-xususiy sheriklik, institutsional hamkorlik, iqtisodiy samaradorlik, hududiy iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В статье научно рассматриваются организационные механизмы развития кластеров, совершенствование кластерного управления, роль государственной политики в координации экономических процессов, эффективность регионального планирования и вопросы внедрения цифровых систем управления. Обосновывается значение кластеризации для регионального экономического развития, расширения производственной кооперации, повышения инновационной активности и укрепления сотрудничества между субъектами предпринимательства. Также анализируются нормативно-правовые документы, регулирующие деятельность кластеров в Республике Узбекистан, в том числе указы Президента, направленные на развитие рыночных механизмов в сельском хозяйстве, и постановления Правительства, определяющие порядок создания туристических кластеров. По результатам исследования сформулированы предложения по укреплению институционального взаимодействия в управлении кластерами, разработке программ развития с учетом экономической специализации регионов, расширению государственно-частного партнерства и внедрению единых цифровых систем мониторинга.
Ключевые слова: кластеризация, организационные механизмы, кластерное управление, государственная политика, региональное планирование, цифровое управление, инновационное развитие, производственная кооперация, государственно-частное партнерство, институциональное взаимодействие, экономическая эффективность, региональное экономическое развитие.

Abstract. This article provides a scientific examination of the organizational mechanisms for cluster development, the improvement of cluster management, the role of public policy in coordinating economic processes, the effectiveness of regional planning, and the implementation of digital management systems. The importance of clustering in promoting regional economic development, expanding production cooperation, enhancing innovation activity, and strengthening collaboration among business entities is substantiated. The article also analyzes the regulatory legal framework governing cluster activities in the Republic of Uzbekistan, including Presidential decrees aimed at

developing market mechanisms in agriculture and government resolutions establishing procedures for the formation of tourism clusters. Based on the research findings, recommendations are developed to strengthen institutional cooperation in cluster management, formulate development programs that take into account the economic specialization of regions, expand public-private partnerships, and introduce unified digital monitoring systems.
Keywords: clustering, organizational mechanisms, cluster management, public policy, regional planning, digital management, innovative development, production cooperation, public-private partnership, institutional cooperation, economic efficiency, regional economic development.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash, innovatsion faoliyatni jadallashtirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanishda klasterlash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatini alohida subyektlar doirasida tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan, ularning xomashyo yetkazib beruvchilar, qayta ishlash korxonalari, logistika xizmatlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta’lim tashkilotlari va davlat boshqaruvi organlari bilan o‘zaro hamkorligini ta’minlash zarur. Shu jihatdan klasterlash iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi kooperatsiyani mustahkamlash, ishlab chiqarish zanjirini takomillashtirish, qo‘shilgan qiymat yaratish va hududiy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishning muhim tashkiliy-iqtisodiy vositasi hisoblanadi. Klasterlarning samarali faoliyat yuritishi, avvalo, ularni tashkil etish va boshqarish mexanizmlarining qay darajada puxta ishlab chiqilganiga bog‘liq. Bunda klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi vakolat va majburiyatlarni aniq belgilash, iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish, investitsiyalarni jalb etish, infratuzilma bilan ta’minlash, innovatsiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish hamda faoliyat natijalarini muntazam monitoring qilish alohida ahamiyatga ega. Agar klaster boshqaruvida institutsional muvofiqlashtirish, shaffof axborot almashinuvi va natijadorlikni baholash tizimi yetarli darajada shakllanmagan bo‘lsa, uning ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar sustlashishi va mavjud resurslardan foydalanish samaradorligi pasayishi mumkin.

O‘zbekistonda klasterlashni rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF–5853-son Farmoni bilan qishloq xo‘jaligini 2020–2030-yillarda rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan bo‘lib, unda tarmoqni modernizatsiya qilish, bozor mexanizmlarini rivojlantirish va qiymat zanjirlarini kengaytirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, Prezidentning 2023-yil 12-dekabrdagi PF–205-son Farmoni qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish, paxta-to‘qimachilik klasterlari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari o‘rtasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratilgan. Mazkur hujjatda klasterlarni tashkil etish, talabgorlarni tanlash va tegishli reyestrni yuritish bilan bog‘liq tashkiliy tartiblar ham belgilangan . Ushbu huquqiy asoslar klasterlar faoliyatida institutsional tartibga solish va iqtisodiy manfaatlar muvozanatini ta’minlash masalalari dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Klasterlashni rivojlantirishda davlat siyosati bilan bir

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

qatorda hududiy rejalashtirishning ham o‘rni katta. Chunki har bir hudud tabiiy resurslar, mehnat salohiyati, transport imkoniyatlari, ishlab chiqarish quvvatlari va bozor infratuzilmasi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shu sababli klasterlarni tashkil etishda hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, mavjud korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya imkoniyatlari, xomashyo bazasi va tayyor mahsulotga bo‘lgan talab kompleks tahlil qilinishi lozim. Hududiy xususiyatlarni hisobga olmagan holda ishlab chiqilgan klaster dasturlari mavjud resurslardan to‘liq foydalanmaslik, ishlab chiqarish quvvatlarining samarasiz joylashuvi va infratuzilma xarajatlarining ortishiga olib kelishi mumkin. Demak, klasterlarni rivojlantirish bo‘yicha qarorlar hududlarning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyalari bilan o‘zaro muvofiqlashtirilishi zarur.

Shuningdek, iqtisodiy boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurati bilan ham belgilanadi. Raqamli boshqaruv tizimlari klaster ishtirokchilari faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yagona axborot muhitida birlashtirish, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini kuzatish, resurslar harakatini nazorat qilish hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi. O‘zbekiston Prezidentining PF–205-son Farmonida qishloq xo‘jaligi subyektlarining kredit buyurtmalarini elektron axborot tizimi orqali taqdim etish kabi mexanizmlarning nazarda tutilishi ham klasterlar faoliyatida raqamli vositalardan foydalanishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Biroq raqamlashtirish faqat elektron hujjat almashinuvi bilan cheklanmasdan, ma’lumotlar integratsiyasi, natijadorlik indikatorlari, risklarni boshqarish va prognozlash tizimlarini ham qamrab olishi lozim.

Shunga qaramay, klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishda bir qator ilmiy-amaliy masalalar mavjud. Jumladan, klaster boshqaruvi va davlat boshqaruvi organlari vakolatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish, klaster ishtirokchilari o‘rtasida shartnomaviy munosabatlarning shaffofligini ta’minlash, hududiy rivojlanish ustuvorliklarini belgilash, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish hamda raqamli monitoring tizimlarini shakllantirish masalalari kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu masalalarni ilmiy jihatdan o‘rganish klasterlar faoliyatining tashkiliy samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy natijalarga erishish uchun zarur.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini ilmiy jihatdan o‘rganish iqtisodiy nazariya, hududiy rivojlanish, strategik boshqaruv va institutsional hamkorlikka oid ilmiy qarashlarni tahlil qilishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda xorijiy olimlarning tadqiqotlari klasterlarning raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni, boshqaruv tuzilmasini shakllantirish, davlat siyosatining samaradorligi hamda hududiy iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalarini yoritadi. Klaster nazariyasining zamonaviy rivojlanishida amerikalik iqtisodchi Maykl Porter (Michael E. Porter)ning ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. Olim o‘zining 1998-yilda Harvard Business Review jurnalida chop etilgan “Clusters and the New Economics of Competition” nomli maqolasida klasterni muayyan

hududda o‘zaro bog‘liq kompaniyalar, ixtisoslashgan yetkazib beruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va tegishli institutlarning geografik jihatdan jamlanishi sifatida izohlaydi. Porterning fikricha, klasterlar korxonalar unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni jadallashtirish va yangi biznes subyektlarining shakllanishiga ko‘maklashadi. Ushbu ilmiy yondashuv klasterlarni rivojlantirishda boshqaruv mexanizmlarining ahamiyatini asoslaydi. Chunki korxonalarning bir hududda joylashishi o‘z-o‘zidan yuqori iqtisodiy samaradorlikni kafolatlamaydi. Buning uchun ular o‘rtasida axborot almashinuvi, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, innovatsion hamkorlik va umumiy iqtisodiy manfaatlarni muvofiqlashtirish tizimi shakllangan bo‘lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, Porterning nazariy qarashlari klaster boshqaruvida xususiy sektor, ilmiy muassasalar va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Klasterlar va hududiy rivojlanish o‘rtasidagi munosabatlar amerikalik iqtisodchi Ann Markusenning tadqiqotlarida ham keng yoritilgan. Olim 1996-yilda Economic Geography jurnalida e’lon qilingan “Sticky Places in Slippery Space: A Typology of Industrial Districts” nomli maqolasida sanoat hududlarini tashkil etishning turli modellarini, jumladan, yetakchi korxona atrofida shakllangan markaziy-tayanch model, tashqi korporativ aloqalarga bog‘liq hududlar va davlat institutlariga tayangan sanoat hududlarini tahlil qiladi

Markusenning ilmiy qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, hududiy klasterlarning muvaffaqiyati faqat mahalliy korxonalar o‘rtasidagi aloqalarga emas, balki tashqi bozorlar, yirik kompaniyalar va davlat institutlari bilan o‘rnatilgan munosabatlarga ham bog‘liq. Bu yondashuv klasterlarni rivojlantirishda hududiy rejalashtirishni kengroq iqtisodiy aloqalar tizimi bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, klasterlarni boshqarish modeli hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, korxonalar tarkibi va institutsional imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlanishi lozim. Klasterlashning tashkiliy mexanizmlarini tahlil qilishda Ian R. Gordon va Philip McCannning 2000-yilda Urban Studies jurnalida chop etilgan “Industrial Clusters: Complexes, Agglomeration and/or Social Networks?” nomli tadqiqoti ham muhim ahamiyatga ega. Mualliflar sanoat klasterlarini tushuntirishda uchta yondashuvni — ishlab chiqarish majmualari, aglomeratsiya iqtisodiyoti va ijtimoiy tarmoqlarni farqlaydilar Klasterlarni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlariga doir amaliy yondashuvlar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalarda ham aks etgan. UNIDOning 2013-yilda nashr etilgan The UNIDO Approach to Cluster Development: Key Principles and Methodologies qo‘llanmasida klasterlarni rivojlantirish jarayoni klasterni tanlash, boshqaruv va ishonchni shakllantirish, diagnostik tahlil, umumiy strategiya va harakatlar rejasini ishlab chiqish, amalga oshirish hamda monitoring va baholash bosqichlari orqali yoritiladi

UNIDO yondashuvida klaster boshqaruvi turli manfaatlarga ega ishtirokchilarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiruvchi institutsional mexanizm sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, klasterlarni rivojlantirish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

bo‘yicha qarorlar faqat ma’muriy topshiriqlar bilan cheklanmasligi, balki ishtirokchilarning real ehtiyojlarini aniqlash, ustuvor yo‘nalishlarni birgalikda belgilash va natijalarni aniq ko‘rsatkichlar asosida baholashni qamrab olishi lozim. Demak, klaster faoliyatida samarali boshqaruv tizimi shakllanishi uchun vakolatlarni taqsimlash, mas’uliyatni belgilash va muntazam monitoring olib borish muhim shartlardan hisoblanadi. O‘rganilgan ilmiy manbalar klasterlashning tashkiliy mexanizmlarini to‘rtta asosiy yo‘nalishda takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi: klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi boshqaruv va hamkorlikni rivojlantirish; davlat siyosatini hududlarning iqtisodiy xususiyatlariga moslashtirish; ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarini hududiy rejalashtirish bilan uyg‘unlashtirish; raqamli monitoring va axborot almashinuvi tizimlarini joriy etish. Biroq ko‘rib chiqilgan xorijiy tadqiqotlar asosan umumiy nazariy va xalqaro amaliy yondashuvlarni yoritadi. Ularni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etishda milliy qonunchilik, hududlarning ixtisoslashuvi, korxonalar o‘rtasidagi mavjud aloqalar va raqamli boshqaruv imkoniyatlarini alohida hisobga olish talab etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini o‘rganishda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning axborot bazasini klasterlash nazariyasiga oid xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari hamda klasterlar faoliyatiga doir rasmiy ma’lumotlar tashkil etadi. Tahlil jarayonida klaster boshqaruvi, davlat siyosati, hududiy rejalashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarining o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Olingan nazariy xulosalar asosida klasterlar faoliyatini muvofiqlashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish va raqamli monitoring mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, boshqaruv samaradorligini oshirish, davlat siyosatini hududiy rivojlanish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish va raqamli boshqaruv vositalarini joriy etish bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli mazkur jarayonni tahlil qilishda klasterlar soni, ular ishtirokchilarining iqtisodiy faolligi, ishlab chiqarish hajmi va klaster faoliyatini tartibga soluvchi institutsional mexanizmlarni birgalikda o‘rganish zarur. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-iyul holatiga mamlakatda maxsus iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlarning jami 7 513 nafar ishtirokchisi mavjud bo‘lgan. Shundan 368 tasi klasterlar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Taqqoslash uchun, maxsus iqtisodiy zonalarda 932 ta, kichik sanoat zonalarida 3 109 ta, texnoparklarda esa 3 104 ta ishtirokchi qayd etilgan.

Ushbu ma’lumotlar klasterlarni mamlakatdagi boshqa hududiy ishlab chiqarish va innovatsion tashkil etish shakllari bilan qiyosiy o‘rganish imkonini beradi. Biroq mazkur 368 ko‘rsatkich klasterlar sonini emas, balki klasterlar toifasidagi ishtirokchilar sonini ifodalaydi. Shu sababli uni bevosita faoliyat yuritayotgan klasterlar soni sifatida talqin qilish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Klasterlar faoliyatining statistik dinamikasi. Klasterlashning tashkiliy mexanizmlari samaradorligini baholashda klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Milliy statistika qo‘mitasining SIAT rasmiy ma’lumotlar bazasida klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmi hududlar kesimida keltirilgan. Ushbu ko‘rsatkich QQS va aksiz solig‘isiz, tegishli davrning amaldagi narxlarida hisoblanadi.

**1-jadval**

**O‘zbekistonda klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi**

| Yil | Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so‘m | Oldingi yilga nisbatan o‘zgarish |
|---|---|---|
| 2022 | 28 679,2 | — |
| 2023 | 31 794,5 | +10,9% |
| 2024 | 36 372,6 | +14,4% |
| 2025 | 37 023,4 | +1,8% |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, SIAT ma’lumotlar bazasi. O‘zgarish foizlari rasmiy yillik qiymatlar asosida hisoblandi. Ko‘rsatkichlar amaldagi narxlarda berilgan.

Jadvaldan ko‘rinadiki, klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2022-yildagi 28,68 trln so‘mdan 2025-yilda 37,02 trln so‘mga yetgan. Nominal hajmning umumiy o‘sishi qariyb 29,1 foizni tashkil etgan. Biroq 2025-yilda o‘sish sur’ati 1,8 foiz atrofida bo‘lgan. Ushbu holat klasterlar faoliyatining keyingi bosqichida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, investitsiyalar samaradorligi, logistika xarajatlari va boshqaruv jarayonlarini chuqurroq tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mazkur raqamlar amaldagi narxlarda hisoblanganligi sababli ularni real ishlab chiqarish o‘sishi sifatida talqin etish mumkin emas. Inflyatsiya ta’sirini chiqarib tashlash va real o‘sishni aniqlash uchun tegishli narx indekslari yoki fizik hajm ko‘rsatkichlaridan foydalanish talab etiladi.

Hududiy tafovutlar va klaster boshqaruvini takomillashtirish. Hududlar kesimidagi statistik ma’lumotlar klasterlar faoliyatini tashkil etishda yagona boshqaruv modelidan foydalanish bilan birga, hududlarning iqtisodiy xususiyatlarini ham hisobga olish lozimligini ko‘rsatadi.

**2-jadval**

**Qashqadaryo viloyatida klasterlar ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishi**

| Ko‘rsatkich | 2024-yil |
|---|---|
| Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so‘m | 4 021,8 |
| Respublika jami hajmidagi ulushi, % | 11,1 |

Manba: Milliy statistika qo‘mitasining hududlar kesimidagi SIAT ma’lumotlari asosida hisoblandi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, Qashqadaryo viloyatida klasterlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi amaldagi narxlarda 2024-yildagi 4,02 trln so‘mdan 2025-yilda 3,05 trln so‘mga tushgan. Bu nominal hisobda qariyb 24,1 foizlik kamayishni anglatadi. Viloyatning respublika klasterlari ishlab chiqarishidagi ulushi ham 11,1 foizdan 8,2 foizga pasaygan. Mazkur o‘zgarish klasterlar faoliyatini hududiy kesimda chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq mavjud statistik ma’lumotning o‘zi kamayish sababini aniqlamaydi. Buning uchun klasterlar tarkibidagi o‘zgarishlar, korxonalarning faoliyat holati, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, investitsiyalar, xomashyo ta’minoti va mahsulot narxlari alohida tahlil qilinishi kerak. Shu bois hududiy boshqaruv mexanizmlarida faqat ishlab chiqarish hajmini emas, balki uning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillarni ham kuzatish muhimdir.

Davlat siyosati va klaster boshqaruvining institutsional mexanizmlari. O‘zbekistonda klasterlar faoliyatini tartibga solishning muhim yo‘nalishlaridan biri — boshqaruv jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va bozor mexanizmlarini rivojlantirishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrdagi PF–205-son Farmonida paxta-to‘qimachilik klasterlarini tashkil etish, talabgorlarni ochiq va shaffof onlayn tanlov orqali tanlash, klasterlar reyestrini yuritish hamda ularning faoliyatini baholash mexanizmlari nazarda tutilgan. Hujjatda avtomatlashtirilgan reyting tizimini yaratish va tegishli operatsiyalarni elektron shaklda amalga oshirishga oid normalar ham belgilangan.

Mazkur mexanizmlarning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, ular klaster boshqaruvini subyektiv qarorlardan ko‘ra aniq talablar, rasmiy ma’lumotlar va natijadorlik ko‘rsatkichlariga asoslash imkonini beradi. Biroq tizimning samaradorligi faqat normativ hujjat mavjudligi bilan emas, balki belgilangan talablarning amalda bajarilishi, ma’lumotlarning muntazam yangilanishi va natijalar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinishi bilan belgilanadi.

Shu nuqtayi nazardan, klaster boshqaruvini takomillashtirish uchun quyidagi tashkiliy mexanizmlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq:

Vakolatlarni aniq taqsimlash: davlat organlari, klaster boshqaruvi, ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning vazifalarini belgilash.

Natijadorlikni baholash: ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi, investitsiyalar, eksport, qo‘shilgan qiymat va o‘zaro kooperatsiya ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatish.

Shaffof shartnomaviy munosabatlar: klaster ishtirokchilari o‘rtasida hisob-kitoblar, mahsulot yetkazib berish va majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish.

Hududiy muvofiqlashtirish: klaster rivojlanish rejalarini hududning resurslari, infratuzilmasi va iqtisodiy ixtisoslashuvi bilan uyg‘unlashtirish.

Klasterlar faoliyatida raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini muvofiqlashtirish, xarajatlarni nazorat qilish va boshqaruv qarorlarining tezkorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu yo‘nalishning amaliy ahamiyati O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish bo‘yicha

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

2025-yil yakunlari va 2026-yil vazifalariga bag‘ishlangan rasmiy axborotda ham aks etgan.

Mazkur axborotga ko‘ra, 2025-yilda mamlakat to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi 134 trln so‘mni, eksport 2,5 mlrd AQSH dollarini, o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar esa 2,1 mlrd dollarni tashkil etgan. Tarmoqda band bo‘lganlar soni 623 ming nafarga yetgan. 2026-yilda ERP tizimlari va sun’iy intellektni joriy etish orqali 40 ta korxonada raqamlashtirishni jadallashtirish rejalashtirilgan.

Ushbu ko‘rsatkichlar to‘qimachilik sanoatining iqtisodiy salohiyati va raqamli boshqaruvni rivojlantirishga qaratilgan amaliy rejalarni ko‘rsatadi. Biroq 2026-yilda belgilangan 40 ta korxonani raqamlashtirish ko‘rsatkichi reja hisoblanadi; uni amalga oshirilgan natija sifatida talqin qilish mumkin emas.

ERP tizimlari orqali xaridlar, ishlab chiqarish, ombor, moliya va sotuv jarayonlarini yagona axborot muhitida birlashtirish mumkin. Sun’iy intellekt esa talabni prognozlash, ishlab chiqarishdagi uzilishlarni aniqlash va resurslardan foydalanishni optimallashtirishda yordam berishi mumkin. Bunday tizimlarning samaradorligini baholashda joriy etilgan dasturlar sonidan tashqari, ishlab chiqarish xarajatlarining o‘zgarishi, buyurtmalarni bajarish muddati, zaxiralar aylanishi va mehnat unumdorligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish lozim.

O‘rganilgan statistik ma’lumotlar va normativ-huquqiy mexanizmlar asosida klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, klasterlar faoliyatini baholash uchun yagona natijadorlik ko‘rsatkichlari tizimini shakllantirish zarur. Ushbu tizim ishlab chiqarish hajmi, qo‘shilgan qiymat, eksport, mehnat unumdorligi, investitsiyalar samaradorligi va korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyani qamrab olishi lozim.

Ikkinchidan, hududiy boshqaruv mexanizmlarini klasterlarning ixtisoslashuviga moslashtirish kerak. Qashqadaryo viloyatidagi ishlab chiqarish hajmining 2025-yilda pasayishi kabi holatlarda korxonalar faoliyati, infratuzilma, moliyalashtirish va bozor sharoitlarini alohida o‘rganish asosida maqsadli choralar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, klaster ishtirokchilari uchun yagona raqamli monitoring platformasini rivojlantirish lozim. Platformada ishlab chiqarish, investitsiyalar, shartnomalar, logistika va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar muntazam yangilanib borishi kerak.

To‘rtinchidan, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bunda davlatning vazifasi shaffof qoidalar, infratuzilma va qulay institutsional sharoitlarni yaratishdan, xususiy sektorning vazifasi esa investitsiya, innovatsiya va samarali boshqaruvni ta’minlashdan iborat bo‘lishi lozim.

O‘zbekistonda klasterlar ishlab chiqarishining nominal hajmi 2022–2025-yillarda oshganini, biroq o‘sish sur’ati yillar bo‘yicha farqlanganini ko‘rsatdi. Qashqadaryo viloyatidagi pasayish esa klasterlar faoliyatini hududlar kesimida alohida tahlil qilish zarurligini namoyon etadi. Davlat siyosatida ochiq tanlov,

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

reyestr, avtomatlashtirilgan reyting va elektron axborot tizimlariga oid mexanizmlarning belgilanishi klaster boshqaruvini takomillashtirish uchun institutsional asos yaratadi. Ularning amaliy samaradorligi esa raqamli monitoring, hududiy rejalashtirish va natijadorlik ko‘rsatkichlarining izchil qo‘llanishiga bog‘liq.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari klasterlashni rivojlantirish samaradorligi ishlab chiqarish subyektlarining hududiy jihatdan birlashishi bilangina emas, balki ular o‘rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning qay darajada yo‘lga qo‘yilgani, boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi hamda institutsional hamkorlikning rivojlanganligi bilan ham belgilanishini ko‘rsatadi. Klaster modeli ishlab chiqarish, qayta ishlash, ilmiy-tadqiqot, logistika va xizmat ko‘rsatish faoliyatini yagona iqtisodiy tizim doirasida muvofiqlashtirish orqali resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot tannarxini maqbullashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot davomida klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishda davlat tomonidan tartibga solish, xususiy sektor tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, klaster ishtirokchilari o‘rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini shakllantirish hamda hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvini hisobga olish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi. Xususan, O‘zbekistonda klaster faoliyatining ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha normativ-huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi 915-son qarori turistik klasterlarni tashkil etish va ularga maqom berish tartibini belgilaydi.

Bunday tajriba klasterlarni tashkil etish jarayonida huquqiy aniqlik, ishtirokchilar mas’uliyati va faoliyatni muvofiqlashtirish mexanizmlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, klasterlash samaradorligini baholashda faqat ishlab chiqarish hajmi yoki korxonalar soniga tayanish yetarli emas. Klasterlarning haqiqiy iqtisodiy natijadorligini aniqlash uchun yaratilgan qo‘shilgan qiymat, mehnat unumdorligi, eksport salohiyati, innovatsion faollik, yangi ish o‘rinlari va klaster ishtirokchilari o‘rtasidagi kooperatsiya darajasini kompleks ravishda baholash zarur. Bu yondashuv klaster faoliyatining miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda uning iqtisodiy va institutsional samaradorligini ham aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, klasterlarni boshqarishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish. Har bir klasterda boshqaruv organlari, ishtirokchi korxonalar, ilmiy-ta’lim muassasalari va tegishli davlat tashkilotlari o‘rtasidagi vakolat hamda mas’uliyat chegaralarini aniq belgilash lozim. Bu qarorlar qabul qilish jarayonidagi takrorlanishlarni kamaytirish, manfaatlar muvozanatini ta’minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, klaster ishtirokchilari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish. Xomashyo yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlash korxonalari, logistika tashkilotlari va sotuv subyektlari o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda kichik va o‘rta biznes subyektlarining klaster qiymat zanjiriga jalb etilishi mahalliy ishlab chiqarish aloqalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Uchinchidan, klasterlarni rivojlantirishni hududiy ixtisoslashuv bilan uyg‘unlashtirish. Klasterlarni tashkil etish va kengaytirishda hududlarning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, transport-logistika imkoniyatlari, mavjud ishlab chiqarish infratuzilmasi va bozor talabini hisobga olish zarur. Bu yondashuv hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni yumshatish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va yangi iqtisodiy o‘sish nuqtalarini shakllantirish imkonini beradi.

To‘rtinchidan, klaster boshqaruviga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish. Klaster ishtirokchilari faoliyati, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, resurslar harakati, logistika jarayonlari va mahsulot realizatsiyasi haqidagi ma’lumotlarni birlashtiruvchi raqamli monitoring tizimini yaratish taklif etiladi. Mazkur tizim tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ma’lumotlar shaffofligini ta’minlash va ishlab chiqarish jarayonlaridagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlashga xizmat qiladi.

Beshinchidan, klasterlar faoliyatini baholashning kompleks indikatorlar tizimini joriy etish. Klaster samaradorligini baholashda ishlab chiqarish hajmi bilan bir qatorda mehnat unumdorligi, qo‘shilgan qiymat o‘sishi, eksport tushumi, innovatsion mahsulotlar ulushi, yangi ish o‘rinlari va kooperatsiya shartnomalari soni kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish lozim. Ko‘rsatkichlarni tarmoqlar xususiyatidan kelib chiqib belgilash va ularni muntazam monitoring qilish klasterlarni qo‘llab-quvvatlash choralarining natijadorligini aniqlash imkonini beradi.

Oltinchidan, klasterlar bilan ilmiy-ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish. Korxonalarning amaliy ehtiyojlariga mos ilmiy ishlanmalar, innovatsion texnologiyalar va malakali kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish zarur. Universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va klaster korxonalari o‘rtasida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarish amaliyotini kengaytirish hamda texnologiyalar transferini rag‘batlantirish klasterlarning innovatsion salohiyatini oshiradi.

Umuman olganda, klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish o‘zaro bog‘liq institutsional, iqtisodiy, texnologik va hududiy omillarni yagona boshqaruv tizimida uyg‘unlashtirishni talab etadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasini mustahkamlash, innovatsiyalarni joriy etish va hududlarning barqaror rivojlanishiga ko‘maklashishi mumkin. Mazkur jarayonda boshqaruvning shaffofligi, natijalarni muntazam baholash va qarorlarni ishonchli statistik ma’lumotlar asosida qabul qilish klaster siyosatining uzoq muddatli samaradorligini ta’minlovchi muhim shartlar hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. — 1998. — Vol. 76, No. 6. — P. 77–90. — URL: https://hbr.org/1998/11/clusters-and-the-new-economics-of-competition (murojaat sanasi: 20.10.2026).

2. Markusen A. Sticky Places in Slippery Space: A Typology of Industrial Districts // Economic Geography. — 1996. — Vol. 72, No. 3. — P. 293–313. — DOI: https://doi.org/10.2307/144402.

3. Gordon I. R., McCann P. Industrial Clusters: Complexes, Agglomeration and/or Social Networks? // Urban Studies. — 2000. — Vol. 37, No. 3. — P. 513–532. — DOI: https://doi.org/10.1080/0042098002096.

4. United Nations Industrial Development Organization (UNIDO). The UNIDO Approach to Cluster Development: Key Principles and Methodologies. — Vienna: UNIDO, 2013. — URL: https://www.unido.org/publications/ot/9654703 (murojaat sanasi: 20.10.2026).

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. — URL: https://lex.uz/uz/acts/-4567334 (murojaat sanasi: 20.10.2026).

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-dekabrdagi PF-205-son Farmoni. Qishloq xo‘jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. — URL: https://lex.uz/uz/acts/-6692968 (murojaat sanasi: 20.10.2026).

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrdagi 915-son qarori. Turistik klasterlarni tashkil etish va ularga turistik klaster maqomini berish tartibi to‘g‘risida. — URL: https://gov.uz/oz/uzbektourism/sections/view/49789 (murojaat sanasi: 20.10.2026).

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Klasterlar tomonidan amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi: hududlar kesimida [Elektron resurs]. — URL: https://siat.stat.uz/data/3639/?lang=uz (murojaat sanasi: 20.10.2026).

**2026-yil, oktabr. №10-son.**

**Mas’ul muharrir:** Beglayev Uchqun
**Musahhih:** Boltayev Nurali
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko‘chasi, 2-uy**